



“O`TKAN KUNLAR” ROMANINING INGLIZCHA TARJIMASIDA MILLIY XARAKTERGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Jumayeva Dilnoz To`rayevna

Buxoro Muhandislik va texnologiya akademik litsey kafedra mudiri

Hasanova Xalida Fattayevna

Buxoro Turon Zarmed Universiteti ingliz tili o`qituvchisi

Kobilova Feruza Tolibovna

Buxoro Muhandislik va texnologiya akademik litsey ingliz tili o`qituvchisi

Anatotsiya: Maqolada «O`tkan kunlar» asarining inglizcha tarjimasidagi qahramonlari va tabiat tasviri tahlili berilgan. Bundan tashqari, asarning asl mazmuni haqidagi qarashlar berilgan. Badiiy asarda berilgan tabiiy landshaftlarni tasvirlash ijodiy badiiy mahoratni namoyish etuvchi omillardan biridir. Chunki tabiat manzaralarini tasvirlashda rassomning o`zi egallagan makonda munosabati, u bu joyni qay darajada bilishi, qahramonlar dunyosi va ular yashaydigan muhitni qanchalik chuqur his etishi muhim rol o`ynaydi. Shuning uchun tabiiy landshaftlarni tasvirlash badiiy asarning ajralmas qismi bo`lib hisoblanadi.

Kirish

Mustaqillik davri o`zbek adabiyotida adabiy tur va janrlarning rivojlanishi bilan bir qatorda badiiy tarjima amaliyotida ham o`sishtirishlar yaqqol ko`zga tashlanmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda ingliz, nemis, fransuz kabi tillardan asliyatga asoslangan tarjimalarning amalga oshirilayotgani quvonarli holdir. Bu borada yosh mutarjimlarning o`z iqtidorini sinovdan o`tkazayotgani, Sharq va G`arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o`girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg`otadi.

Ayni paytda o`zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish borasida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada ishlarining izchil tus olganini O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi badiiy tarjima va xalqaro aloqalar bo`limining Respublikamizdagi yosh ijodkorlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida poytaxt va viloyatlardagi oliy o`quv yurtlari bilan hamkorlikda “Yosh tarjimonlar maktabi”ni tashkil etgani, yosh tarjimonlarning ilk tarjima asarlari “Adib” nashriyatida chop etilayotgani, “Jahon adabiyoti” jurnalining muntazam chiqib turgani va amalga oshirilgan boshqa ko`plab tadbirlar misolida ko`rish mumkin. Zero, o`zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharaflil vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g`ayrat-shijoatiga bog`liqligi sir emas.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan vazifalar, badiiy adabiyotni taraqqiy ettirish bo`yicha bildirgan fikr-mulohazalari, tavsiyalardan kelib chiqsak, bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o`rni, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekani ayonlashadi.





Asar, avvalambor keng va teran ko‘lamdagi milliylik xususiyatiga ega bo‘ladi. Binobarin, mazkur xususiyat o‘z teranligini, kengligini tarjimada ham saqlab qolishi kerak. Buning uchun tarjimondan asliyatga monand to‘g‘ri tasavvur hosil qiladigan matn yaratish talab qilinadi.

Ijodkor turmushning o‘zidagi “oq” va “qora” ranglar to‘qnashuvini gavdalantirish orqali turli-tuman xarakterli kishilar qiyofasini namoyon etadi. Kishilarni shunchaki umumiy tarzda emas, balki muayyan xarakter egasi sifatida tasvirlash badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Adabiyot turli- tuman xarakterlarni gavdalantirish orqali insonning ichki dunyosini, uning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini aks ettiradi.

Tarjimonga tarixiy mavzudagi asarlarni tarjima qilish zamonaviy mavzudagi asarlarni tarjima qilishga nisbatan murakkab mashg‘ulot hisoblanadi. Tarixiy mavzudagi asarlarda tarixiylik va milliylik bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu tushunchalarning birini tarjimada noto‘g‘ri aks ettirilishi, o‘z navbatida, ikkinchisining ham buzilishiga olib keladi. Demak, tarjimon oldidagi murakkab masalalardan yana biri tarjimada milliy xarakterni qayta aks ettirishdir. Chunki, asar qahramonlarining nafaqat o‘ziga xosligini, balki ularning botiniy va zohiriy dunyosini ifoda etgan portret – tavsifi, yorqin xarakteriga xos xatti-harakatlari va holatlari ham milliy xarakterning tarkibiy qismlari bo‘lib, ularni tarjimada mayda unsurlarigacha berish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Zero, barcha xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi, uyg‘unlashtiruvchi xarakter in‘ikosini o‘rganish va shu asosda baho berish tarjima tahlilidagi yetakchi hamda asosiy mezon bo‘la oladi. Chunki, badiiy asarni tashkil qiluvchi barcha unsurlar qahramonlar xarakterini ochib berishga yo‘naltiriladi. Adabiyotshunos N.Dragomeratskaya ta’kidlaganidek, “Har qanday obraz – inson, tabiat, ijtimoiy hodisa in‘ikosi inson xarakterini bevosita yoritishga xizmat qiladi”. Demak, xarakter badiiy asarni, shu bilan tarjimini tahlil etishda katta ahamiyatga molik.

“Xarakter yozuvchi asarda tasvirlayotgan tarixiy shart-sharoitlarga xos inson yashash tarzi (xatti-harakatlari, fikr-kechinmalari) va yozuvchining estetik me‘yoriga muvofiq ravishda tasvir etiladi”. Xuddi shu fikrga tayanilgan holda olib boriladigan xarakter tahlili til, syujet, kompozitsiya tahlilida uyg‘unlashadi.

Zero, xarakter shular ichidagina mavjud. Bu uyg‘unlik esa o‘z navbatida asarning umumiy mavzusi hamda g‘oyasi tahlili bilan birgalikda kechadi. Ma’lumki, asardagi barcha unsurlarni qamrab olgan tarjima ko‘p qamrovli bo‘lishi bilan bir qatorda yaxlitlikka ega. Shu nuqtai nazarga ko‘ra milliy xarakterning tarjimadagi in‘ikosi masalasini o‘rganish tarjimini asliyatga badiiy-g‘oyaviy uslubiy hamohangligi masalasini ham idrok etish demakdir. “Yozuvchi uchun asosiy va eng qiyin masala xarakter yaratishdir, qolgan hamma narsa ana shunga bog‘liq-deb yozadi K.Chukovskiy. – Xarakter yaratishga muassar bo‘ldimi, demak, roman, povest va shu kabilar yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Agar xarakter yo‘q bo‘lsa, roman ham yo‘q. Til, peyzaj, kompozitsiya, stilning butun hiyla – nayranglari haqiqiy yozuvchi qo‘lida faqatgina kishi shaxsini, xarakterini yaratish vositasidir”. U yoki bu xalqning milliy xakteri esa shu xalqning uzoq tarixiy hayoti davomida turli siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanadi. “Milliy xarakter qandaydir abadiy “irqiy ruh” emas, balki tarix mahsuloti hisoblanadi. U juda sekin o‘zgaradi va xalqning urf-odatlarini, temperamenti, san’ati va umuman faoliyatining barcha jabhalarida namoyon bo‘ladi”.

Tarjimon tarixiy muhit va milliy xarakter xususiyatlarini diqqat bilan o‘rganishiga bo‘lgan talablar chindan ham tabiiy bo‘lib, ularni badiiy tarjima masalalariga bag‘ishlangan deyarli barcha maqolalar va tadqiqotlarda uchratish mumkin. Biroq bu masala o‘z mohiyati bilan o‘ta murakkab bo‘lib, agar tarjimon o‘zining “g‘arb” va “sharq” xarakterlarini subyektiv idrok etishidan kelib chiqib, tor doirada ish olib borsa, bu masala yanada mushkullashadi. Tarjimashunos G.Lomidze milliy ruh va milliy xarakterni noto‘g‘ri talqin qilishlaridan bezovtalanib: “Milliy xarakter kategoriyasiga ba’zan





telbalarcha yondashiladi. Milliy xarakterni sof holda, faqat bir xalqqagina xos bo'lgan va boshqa xalqlarda umuman uchramaydigan alohida xususiyatlar majmuasi, deb qarashadi. Bunday mavhum, alohida milliy xarakter tabiatda yo'q", deb yozganida tamoman haqli edi.

Xullas, bolgar olimasi Anna Lilova ta'kidlaganidek, "Tarjimada qiyinchiliklar ma'lum darajada u yoki bu asardagi milliy xarakterni aniq, ravshan qayta yaratish bilan bog'liq. Asar milliy xarakterni qanchalik yorqin aks ettirsa, tarjimon unga mos keladigan muqobil tasviriy vositalarni topishda shunchalik qiyinchiliklarga duch keladi".

Bu esa taniqli tarjimashunos olim Jumaniyoz Sharipov ta'kidlaganidek "Tarjimon qaysi tildan tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha xalqning milliy koloritini, xususiyatlarini sinchiklab bilmog'i, his qilmog'i kerak" dir.

Chindan ham asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo'lsa, o'sha tilda ravon yangrashi, o'sha tilga xos bo'lgan vositalar yordamida yoritilishi kerak. Tarjimoni o'qiganda kitobxon uni xuddi asliyatdek his eta olsa, bu tarjimonning yutug'idir. "Katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari bor, u o'z xarakteriga, o'zining tili hamda adabiy qoida va uslubiga egadir. Adabiy asarlarni ularning milliy xususiyati bo'yicha yengil ajrata bilish mumkin. Mana shuning uchun milliy xususiyatini tarjima qilinayotgan tilda bera bilish katta ahamiyatga egadir. Ijodkor tarjimonning san'ati – mahorati xuddi ana shunda bilinadi".

Badiiy asarda obrazni xarakterlovchi asosiy vositalardan biri portret tasviridir. Portret tasviriy san'atda va badiiy adabiyotda hayot voqeligini bevosita ko'rsatishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Portretga ajratilgan o'rin, yuklangan vazifa – hammasi bir mantiqqa, ma'lum bir qonunga bo'ysundirilgan bo'lishi shart. Portret o'z-o'zicha, o'z holicha hamma narsadan ustun turishi, umuman, asar yo'nalishi bilan bog'lanmasligi mumkin emas. Uning o'rnini ham, vazifasini ham asosan yozuvchi belgilaydi. U istasa, qahramonning xarakterini ochishda portretga yetakchi o'rin ajratadi, istasa butunlay e'tibor bermaydi. Bu yozuvchining u yoki bu portret usuliga moyilligi bilan izohlanadi. Lekin, muallif ixtiyori ham ma'lum darajada nisbiy: hech vaqt asarda portret o'z-o'zicha, vazifasiz bo'lmaydi. Vazifa har bir davrda, har bir san'atkorda bir xil bo'lgan emas.

Turmushda bir-biriga tamomila o'xshash kishilar bo'lmaydi, ularning har birida ichki va tashqi xususiyatlar faqat ulargagina xos bo'lishi mumkin. Demak, voqelikning badiiy in'ikosi bo'lgan asarlardagi personajlar ham bir xil ko'rinishga ega emas.

Binobarin, yozuvchi tasvirlagan qahramoni xarakterini o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi unsurlardan asosiysi bo'lgan portret tasvirini tarjimada berish oson ish emas. Negaki "tarixiy shaxs, yoki tarixiy voqealarni qanday bo'lsa shundayligicha, bo'yamasdan, xolis ko'rsatish kerak. Xolis munosabatda bo'lish lozim".

Yozuvchi o'zi yaratayotgan obraz vositasida hayotga, uni o'rab turgan muhitga, insonlarga munosabatini namoyon etadi. Yaratilgan obrazda yozuvchining dunyoqarashi, hayotni tushunishi, fikrlashdagi o'ziga xosligi aks etadi. Tarjimon obrazni to'g'ri aks ettirsa, asar g'oyasi va ko'tarilgan hayotiy muammolarni benuqson ifodalashga erishadi. Qahramon portreti tasviri ana shunday vositalardan biridir.

Ma'lumki, badiiy portret insonning tashqi ko'rinishi, yuzi, libosi, yurish- turish tasviri bo'lib, qahramonning ma'naviy qiyofasini yorqinroq, aniqroq tasvirlashga ko'mak beruvchi san'atdir. Zotan, qahramonning tashqi qiyofasi, portreti tasviri obraz, xarakter mohiyatini yoritishning muhim unsuri hisoblanadi. Portret tasviridagi o'xshatishlar, sifatlashlarda milliy o'ziga xoslik yorqin aks etadi. Zero, yozuvchi bu o'xshatish, sifatlashlarni o'zi mansub bo'lgan millat moddiy- ma'naviy olamiga





xos unsurlardan oladi. Ma'lum bir asar qahramonining obrazini tarjimada to'laqonli aks ettirish uchun uning portretini, nutqini, xatti-harakatini to'g'ri tasvirlab berish lozim. Tasvirlashning boshqa vositalari bilan bir qatorda portret tipik obraz yaratishning ta'sirchan vositasi hisoblanadi. Portret qahramonning ichki dunyosini ochib berishga, xarakterini individuallashtirishga, uning o'zgachaliklarini ajratib turuvchi xususiyatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Yozuvchining ijod qilish, yaratish uslubi va mahorati muayyan g'oyaviy-badiiy funksiyalar bilan bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Bu funksiyalarni, asarda, ma'lum darajada, portret xarakteristikasi bajaradi. Shu boisdan qahramon portretini tarjimada to'laqonli tasvirlab berish uchun tarjimon portret yaratishda asar muallifi qo'llaydigan individual usullar haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i, har bir portret tasvirining xarakterga aloqador nuqtalariga, milliy xususiyatlariga diqqat qaratishi, portretidagi har bir detalning mazmuni va vazifalarini aniqlashi kerak bo'ladi.

“O'tkan kunlar” romanida yozuvchi qahramonlarning ham ichki dunyosini, ham tashqi ko'rinishini, shuningdek, xarakterini ochib berishda qahramon portretini o'ziga xos yo'sinda aks ettirgan. Muallif birinchilardan bo'lib qahramonning tashqi ko'rinishi orqali uning psixologiyasi, xarakteri, ichki dunyosini ko'rsatishga erishgan. Qahramon portretini tasvirlashda ko'proq milliy bo'yogga ahamiyat berilganligi, o'z navbatida, tarjima jarayonida mutarjimga noqulayliklar tug'dirishi mumkin: Otabek – “og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit” – romanning bosh qahramoni, savdogar, Yusufbek hojining o'g'li, bir muddat Toshkentdagi Beklarbegi madrasasida tahsil olgan, yigirma to'rt yoshda.

Kumush – “quyuq jinggila kibrak”lari ostidan “timqora ko'zlari” boqib turguvchi, “qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi” ko'ringuvchi, “to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuz”lik o'n yetti-o'n sakkiz yoshlardagi, marg'ilonlik Mirzakarim qutidor qizi, Otabekning ma'shuqasi; roman oxirida kundoshi Zaynabning taomga qo'shib bergan zaharidan o'ladi.

Zaynab – toshkentlik Olim ponsadboshining qizi, “o'n yetti yoshlar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o'rtacha husnlik”, O'zbek oyimning o'g'li Otabek uchun tanlagan kelini, Kumushning kundoshi: roman oxirida Otabek taloq qo'yadi va u jinni bo'lib qoladi.

Yusufbek hoji – Toshkent hokimining mushovir-maslahatchisi, Toshkentning mashhur a'yonlaridan biri; Otabekning otasi, xalq, el-yurt manfaatini o'ylaydigan fidoyi shaxs.

O'zbek oyim – Yusufbek hojining xotini, ellik besh yoshlarda; chala-dumbul tabiatlik, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur xotin, uncha-muncha to'y va azalarga “kavshim ko'chada qolgan emas” deb bormaydi.

Hasanali – Otabekning “ma'naviy otasi”, hoji xonadonining quli, oltmish yoshlar chamasida; o'ziga xos ma'naviy qiyofaga ega qahramonlardan biri.

Mirzakarim qutidor – Yusufbek hojining marg'ilonlik do'sti, savdogar, “qora qosh, qora ko'z, ko'rkam yuz”lik, qirq besh-ellik yoshlar chamalik kishi, Kumushning otasi.

Oftob oyim – “o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin”, Mirzakarim qutidorning jufti haloli, ya'ni Kumushning onasi.

Oysha buvi – Oftob oyimning onasi, yetmishlardan oshgan kampir.

Homid – Otabekning raqibi, Ziyo shohichining qaynisi, chaqimchilik, “qo'lansa gaplar uchun yaratilgan odam”, romandagi shaxslararo konfliktda asosiy o'rinda turadi; o'ttiz besh yoshlarda, Otabek tomonidan o'ldiriladi.





Ziyo shohichi – Marg‘ilon boylaridan, Yusufbek hojining do‘stlaridan biri, Mirzakarim qutidorning uyiga Hasanali bilan Otabek tomonidan Kumushni so‘rab sovchi bo‘lib boradi.

Ushbu asarning ingliz tiliga qilingan tarjimasini tahlil etar ekanmiz, qahramon portreti tarjima jarayonida qanday ifoda etilganligiga e‘tiborimizni qaratamiz. Asarning “Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li” nomli birinchi bobida Otabekka berilgan ta‘rif: Asliyat:

“Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.”

Muallif Otabekning “og‘ir vazmin”, “salobatli”, yuzining esa “ko‘rkam va oqligiga”, qaddi-qomati raso, ya‘ni “kelishgan”, ko‘z va qoshlari bir-biriga mutanosib ravishda qoraligi va qahramonimizning yoshini bildirish uchun “endigina murti sabz urgan” ligiga ishora qiladi. Muallif Otabekning portretini o‘zbekona ruh bilan mohirona tasvirlab bergan. Bu satrlarni o‘qigan kitobxon ko‘z

oldiga beixtiyor yosh, navqiron, ayni kuch-quvvatga to‘lgan viqorli ko‘rkam, shu bilan bir qatorda, bu ko‘rkamlilikni yanada boyitgan og‘ir vazmin bir yigit siymosi gavadalanadi. Endi aynan shu parchani ingliz tiliga tarjimasini bilan solishtiramiz:

“Calm and reserved, of stately build, with a handsome, alabaster face, ebony eyes under equally ebony brows, and a light fuzz of moustache just showing through—such was a young man...”

Tarjimadan ko‘rinadiki, qahramon portretini mutarjim asl nusxaga monand bera olgan. Otabek portretiga xos detallarni ingliz tiliga berish uchun kerakli ifodalarni topgan. Masalan, “og‘ir ta‘bi‘atlik” uchun “calm and reserved,” “qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq” o‘rnida “ebony eyes, under equally ebony brows” shaklidagi birikmalarni qo‘llagan. Tarjimon muallifning “ulug‘ gavdalik” birikmasining o‘rniga “stately build” so‘zini qo‘llagan va to‘g‘ri yo‘l tutgan. Aslida “stately built” so‘zi ko‘proq “katta gavdalik”, “ulug‘ gavdalik” ma‘nolarini anglatrsa ham, uning ikkinchi bir ma‘nosi “mag‘runona va ulug‘vor ko‘rinish”, ya‘ni “viqorli” degan mazmunda keladi. Bu o‘rinda muallif ham aynan Otabekning salobati haqida so‘zlamog‘da va aytib o‘tish kerakki, “stately build” aynan salobatli, viqorli ma‘nosida kelib Otabekning shaxsini ochib berolgan. Lekin tarjimada Otabek tasviridagi “kelishgan” so‘zi o‘rniga kelishgan oq yuzli so‘zi ishlatilgan. Bu yerda “handsome man” iborasidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, Otabek portretidagi “endigina murti sabz urgan bir yigit” birikmasini tarjimon “and a light fuzz of moustache just showing through...”

tarzida tarjima qilgan. Yozuvchi bu yerda Otabekning endigina murti, ya‘ni mo‘ylovi ko‘rina boshlaganiga va bu bilan Otabekning endigina yigitlik chog‘iga kirganiga urg‘u beradi. Ingliz tilida esa buning “a light fuzz of moustache” deb tarjima qilinganligi ma‘noni to‘liq ochib bergan.

Yozuvchi Kumushbibining qiyofasini quyidagicha chizadi: “...Uning qora zulfi par yostiqlarning turlik tomoniga tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyug‘ jingila kibrak ostidagi tim qora ko‘zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi...to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biroq qizilliqga aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi...Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li

bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o‘lturdu...”

Tarjimasini: “... Her black braids lie tangled among the pillows, her jet-black eyes gaze out from under her long, thick eyelashes, staring into space as though she had glimpsed something... Her fine, blue-black arched brows are knitted into a frown as though something troubles her.... A bashful blush lightly flushes her clear, carefree face, round and luminescent as the full moon... Tossing off the





corner of the blanket, she runs her delicate white hand over a black beauty spot, most tastefully placed by mother nature herself to the left of the girl's dainty nose. ... ”

Abdulla Qodiriy soʻzlarni tanlab ishlatadi. Portret tasvirida ham Kumushbibining goʻzalligini, uning sochlarini, kipriklarini va shu kiprik ostidagi tim qora xumor koʻzlarini, koʻzlariga mutanosib ravishda chizilgan qora va qiyiq qoshlarini, toʻlin oydek sof, oppoq yuzini va qizil yanoqlarini, shuningdek, har qanday sanʼat asari bilan raqobatlasha oladigan, goʻzallikni tom maʼnoda mukammal holga keltirgan, tabiatning usta qoʻli bilan qoʻndirilgan qora xolini soʻz vositasida mohir rassomdek chizadi. Ushbu unsurlarning tarjimada qayta aks ettirilishi obrazni toʻlaqonli chiqishini taʼminlaydi. Berilgan portret tarjimasini tahlil etadigan boʻlsak, tarjima muvaffaqiyatli chiqqan. Tarjimon ham muallif tilini tushungan va matnni mahorat bilan tarjima qila olgan. Bularni quyidagi oʻrinlarda koʻrishimiz mumkin: quyuq jingila kiprak ostidagi tim qora koʻzlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani koʻrgan kabi... ifodasi uchun her jet –black eyes gaze out from under her long ,thick eyelashes, staring into space as though she had glimpsed something ... birikmasini, toʻlgʻan oydek gʻuborsiz oq yuzi biroz qizilliqqa aylangan-da, kimdandir uyalgʻan kabi...taʼrifi uchun A bashful blush lightly flushes her clear , carefree face, round and luminescent as the full moon.....ifodasini qoʻllaydi. Tarjimonning mahorati Kumushbibining latif burnining oʻng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qoʻli bilan qoʻndirilgʻan qora xolini tarjimada qayta yaratishda koʻzga tashlanadi. Mutarjim bu taʼrifni she runs her delicate white hand over a black beauty spot, most tastefully placed by mother nature herself to the left of the girl's dainty nose..deb. tarjima qilgan.

Shuni taʼkidlash lozimki, oʻzbek millati tim qora koʻzli, shahlo yoki humor koʻzli qizlarni yaxshi koʻrgani uchun asarlarda goʻzal qizlar portreti taʼrifida aynan

“tim qora, shahlo yoki humor koʻzlar” tasvirini oʻqiymiz. Lekin ingliz millati moviy, yashil koʻzlarni qadrlagani bois ingliz asarlarida goʻzal qizlar tasvirida “tim qora” emas, aynan “moviy koʻzli, yashil koʻzli” kabi tasvirlar joy oladi. Hattoki shu kabi ranglarni koʻzlar uchun “a blue eye” kabi tasvirlarga ham koʻp duch kelamiz. Lekin yuqorida keltirilgan parchaning tarjimasida koʻrganimizdek, tarjimon oʻzbek mintaletiti asosida yondashib, “jet-black eyes” deb tarjima qiladi. Aytish mumkinki, bu tarjima ham matnga mos kelgan, ham unda oʻzbekona milliy ruh va qiyofa saqlab qolingan.

Keyingi portret tasviri va tarjimasini qiyoslab koʻraylik: “Oʻn yetti yoshlar chamaliq, kulcha yuzlik, oppoqqina, oʻrtacha husnlik Zaynab qayin onasining tilak va shaʼniga loyiq tavozi” – odoblar bilan bitta-bitta bosib dasturxon yonigʻa keldi”

Inglizcha tarjimasini:

“The fair ,round- faced, sweet looking Zaynab ,just seventeen years old ,bowed to her mother- in-law as is customary, then , taking tiny steps, she approached the dastarkhan.”

Yozuvchi Zaynab obrazi tasvirida Zaynabning oʻn yetti yoshlar atrofida va kulcha yuzli ekanligini taʼkidlaydi. Tarjimada esa “just seventeen years old ” deb oʻgirilgan boʻlib, yozuvchining “chamaliq” soʻzi ‘just’ yaʼni “endigina” soʻzi orqali urgʻu berilgan. Ingliz tilidagi “just” soʻzi “chamaliq” soʻzining tarjimasiga toʻgʻri kelmasada, “ just seventeen years old “soʻz birikmasining birga qoʻllangani, yozuvchi tasviriga biroz boʻlsada toʻgʻri keladi, maʼnosidan kelib chiqadigan boʻlsak, endigina 17 yoshga kirgan deb aytishimiz mumkin. Lekin “Oʻn yetti yoshlar chamaliq” “she was approximately 17 years old ” deb oʻgirilganda yanada maqsadga muvofiq boʻlar edi. Yozuvchi “kulchalik yuzlik” ifodasi orqali Zaynabning kulcha kabi “dumaloq” yuzli ekanligiga ishora qilgan. Tarjimada esa ushbu tasvir “round-faced” deb, yaʼni “kulchadek dumaloq” emas, balki “doira yoki dumaloq yuzli” boʻlib oʻgirilgan. Inglizcha tarjimasini:





“The fair ,round- faced, sweet looking Zaynab ,just seventeen years old ,bowed to her mother- in-law as is customary, then , taking tiny steps, she approached the dastarkhan.”

Yozuvchi Zaynab obrazi tasvirida Zaynabning o‘n yetti yoshlar atrofida va kulcha yuzli ekanligini ta’kidlaydi. Tarjimada esa “just seventeen years old ” deb o‘g‘irilgan bo‘lib, yozuvchining “chamaliq” so‘zi ‘just’ ya’ni “endigina” so‘zi orqali urg‘u berilgan. Ingliz tilidagi “just” so‘zi “chamaliq” so‘zining tarjimasiga to‘g‘ri kelmasada, “ just seventeen years old “so‘z birikmasining birga qo‘llagani, yozuvchi tasviriga biroz bo‘lsada to‘g‘ri keladi, ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, endigina 17 yoshga kirgan deb aytishimiz mumkin. Lekin “O‘n yetti yoshlar chamaliq” “she was approximately 17 years old ” deb o‘g‘irilganda yanada maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yozuvchi “kulchalik yuzlik” ifodasi orqali Zaynabning kulcha kabi “dumaloq” yuzli ekanligiga ishora qilgan. Tarjimada esa ushbu tasvir “round-faced” deb, ya’ni “kulchadek dumaloq” emas, balki “doira yoki dumaloq yuzli” bo‘lib o‘g‘irilgan.

Endi asardagi O‘zbek oyim portertidagi chizgilarga va buning zamirida qahramon milliy xarakteriga ham to‘xtalib o‘tamiz. Asliyat:

“O‘zbek oyim ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabi’atlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirliги bilan mashhur edi

Shu birgina jumla bilan muallif qahramon portretini va xarakterini yorqin aks ettira olgan. Bu jumlaning o‘qishimiz bilan ko‘z o‘ngimizda so‘zi o‘tkir, gapini hammaga, kezi kelganda katta davlat amaldori bo‘lgan turmush o‘rtog‘i Yusufbek Hojiga ham o‘tkaza oladigan o‘zbekning kayvoni ayollaridan biri namoyon bo‘ladi. Endi bu parchani ingliz tiliga qilingan tarjimasini bilan solishtiramiz:

“ Uzbekayim ,was round fifty years old. She was a rather dim –witted woman, but domineering , renowned for always getting her own way in discussions with her husband.”

Tarjimon O‘zbek oyim tasviri tarjimasida ham to‘g‘ri so‘zlarni tanlay bilgan. Masalan: “chala-dumbul” so‘zining o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagi ma’nolari mavjud: 1) don uchun: to‘liq pishmagan, hali qotmagan, sutmi-qatiq bo‘lib qolgan holati; 2) mevalar uchun: ta’m kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati; yana bu so‘zning ko‘chma ma’nolari ham mavjud bo‘lib, insonlarga nisbatan, aqlsizroq, tentaknamo, devonasifat, shuningdek, hayot tajribasi bo‘lmagan, xom, g‘o‘r kabi ma’nolari ham mavjud. Ushbu ma’nolarni ingliz mutarjimi chuqur tushungani bois ingliz tiliga ushbu ma’nolarni bera oluvchi “dim witted” ifodasi bilan o‘g‘irgan va to‘g‘ri yondashgan. “Eriga o‘tkirliги bilan” birikmasini esa “renowned for always getting her own way in discussions with her husband.” deb “o‘tkir” so‘zini asl ma’noda emas, ko‘chma ma’noda bergan va ushbu so‘z tarjimada qanday ma’no anglatayotganini yaxshi his qilgan. Hozirgi zamonaviy ingliz tilida chet tillardan kirib kelgan so‘zlar ko‘p. Shu o‘rinda “domineering”, ya’ni , “dominant” so‘zi ham borki, ushbu so‘z ayollarga nisbatan qo‘llanilsa, “eriga hukmdor” , “oilaning qarorlarini o‘zi chiqaradigan” kabi ma’nolarni beradi. Lekin ushbu parcha tarjimasida O‘zbek oyim uchun “dominant” so‘zini berib bo‘lmas edi. Chunki, har bir so‘z tarixiy davrni ham o‘zida mujassam etishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun tarjimon aynan bir so‘z bilan emas, balki “but domineering , renowned for always getting her own way in discussions with her husband.”kabi birikma bilan erishni ma’qul

Topgan Bo‘lishi bejiz emas. Agar zamonaviy asar bo‘lganida “dominant” yoki shunga o‘xshash so‘z yoki ibora bilan tasvirlashi mumkin edi.

Endi asardagi personajlardan Rahmat va Homidning portretiga diqqatimizni qaratamiz. Asliyat:





“Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol- murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘lonning boylaridan Ziya shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttiz besh yoshlarda bo‘lgan ko‘rimsiz bir kishi edi...”

Tarjimasi: “ One of them –a young man , about twenty-five years old ,shortish , round-faced ,with a sparse beard and moustage –was the son of Ziya –shakhichi ,a very well –to-do man from Marg‘ilan. He went by name Rakhmat. The second was about thirty-five years old, lanky ,his dark face disfigured by pockmarks.....

Birinchi shaxsga berilgan ta‘rifning tarjimasi aynan asliyat bergan ma‘noni bera olgan. Tarjimon “gavdaga kichik” ifodasi uchun [”shortish” iborasini, “yuzga to‘la” ta‘rifi uchun,” round-faced”, “ozroqqina soqol-murtlik” tasviri uchun “with a sparse beard and moustage” birikmasini qo‘llaydi va to‘g‘ri yo‘l tutadi. Ikkinchi shaxsga to‘xtaladigan bo‘lsak, ikkinchisi ham asliyatga monand, biroq asl nusxada “chag‘ir ko‘zlik” birikmasi tarjimada “lanky” tarzida tarjima qilingan. Chag‘ir ko‘z deganda, o‘zbek tilida porlab turuvchi, nigohi o‘tkir ko‘z nazarda tutiladi. Ingliz tilida lanky deganda “ko‘k ko‘z” li inson tushuniladi. Bu o‘rinda, qahramon portretida muallif nazarda tutgan obraz, tarjimada asl ma‘nodan biroz uzoqlashib ketgan holatini ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘z “a sharp sight” birikmasi shaklida o‘girilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Asarda asosiy o‘rin egallagan qahramonlardan biri bo‘lgan Hasanalining portretini yozuvchi shunday chizadi:

“Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so‘rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo‘lib, oltmish yoshlar chamasi, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik edi.

Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi.”

Bu portret tasvirini o‘qib turib aytishimiz mumkinki, bu yerda muallif oppoq soqolli nurli bir qariyasini, shu bilan bir qatorda hali hanuz o‘zini oldirib qo‘ymagan bardam-baquvvat inson siymosini yaratgan.

Turk tiliga tarjimasi:

“Meanwhile ,a third man entered the room .He ,too ,bade the welcome. Khasanali , as the old man was called ,was around sixty years old , with an oblong face , prominent forehead , round , almost yellow eyes,and a long ,snow –white beard. Beard aside , his posture and complexion belied his age.”

Asliyat va ingliz tiliga qilingan tarjimani solishtiradigan bo‘lsak, tarjima juda to‘g‘ri va o‘rinli amalga oshirilgan. Tasvirdagi oltmish yoshlar chamasi ifodasi uchun around sixty years old, cho‘ziq yuzlik birikmasi uchun with an oblong face, do‘nggiroq peshonalik o‘xshatishi uchun prominent forehead, to‘garak qora ko‘zlik ifodasi uchun round, almost yellow eyes, oppoq uzun soqollik birikmasi uchun snow –white beard ,, ayniqsa, Hasanalining soqoli oq bo‘lishiga qaramasdan, uning hali-hanuz tetik va baquvvatligiga ishora qiluvchi Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas jumlasini Beard aside , his posture and complexion belied his age tarzida tarjima qilinishi tarjimonning yutuqlari hisoblanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. “Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor”. – T.: O'zbekiston, 2009.
3. Tarjima san'ati. – T.: F. Gulom nomidaagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. .
4. Juraev K. Tarjima san'ati. – T.: Fan, 1982.
5. Isomiddinov Z. Aldokchi suzlar bilan bahs. // Tarjima san'ati. 5-kitob. – T., 1980.
6. T. Malik. Tanlangan asarlar. 5-jid. T., 2007
7. Iyldoshev I., T. Uzturk, Yu. Uzturk Uzbek va turk maqollari va iboralari. – T.: Uzbek – turk likeylari, 1998.
8. Karimov M. Turkiy tillardan biridan ikkinchisiga tarjima qilişning ayrim masalalari» Badiiy tarjima dustlik kuruli. T., - Ukituvchi, 1990.
9. Komilov N., Salomov F. Tarjimom mahorati. – T.: Fan, 1979 .
10. Литературный энциклопедический словарь.-М.,1987.
11. Raḥmatullaev Sh. Uzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari. – T.: Fan nashriyoti, 1966.
12. Salomov F. Adabiy anʼana va badiiy tarjima. – T.: Fan nashriyoti, 1980.
13. Salomov F., T. Boboev T. Turkiy tillardan tarjima qiliş problemasiga doir// Tarjima san'ati. F.Gulom nomidani adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1973.
14. Salomov F. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, Ukituvchi nashriyoti, 1983.

Manbalar:

- [1] –Qodiriy A., O'tkan kunlar, roman, Toshkent, 2013.
- [2] -Abdulla Qadiri ,Days gone by, novel translated by Carol Ermakova Nouveau Monde editions,2018 Paris

Lug'atlar

- A. O'zbekcha-inglizcha lug'at, "Davr nashriyoti" Toshkent-2013
- B. Англо –русский фразеологический словарь Москва -1967
- C. Русско-английский словарь. Москва, 1969
- D. Узбекский-русский словарь. Москва, 1977.
- E. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 1-tom. T, 2007.
- F. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 2-tom. T, 2007.
- G. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 3-tom. T, 2007.
- H. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 4-tom. T, 2007.
- I. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. 5-tom. T, 2007.
- J. Uzbekcha-turkcha va turkcha-uzbekcha izohli lug'at. T. 1995.





SCIENCE BOX

Manbalar

[1] –Qodiriy A., O‘tkan kunlar, roman, Toshkent, 2013.

-Abdulla Qadiri, Days gone by, novel translated by Carol Ermakova Nouveau Monde editions,2018
Paris

